

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI  
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG  
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN YONG‘IN  
AVARIYA-QUTQARUV TAKTIKASI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI  
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

# **O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN YONG‘IN AVARIYA-QUTQARUV TAKTIKASI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

## **I. Maqsad**

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida yong‘in avariya-qutqaruv taktikasi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

## **II. Me’yoriy asoslar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

## **III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari**

### **Yong‘in avariya-qutqaruv taktikasi**

1. Yong‘in o‘chirish va qutqaruv taktikasi;
2. Yong‘in o‘chirish taktikasi;
3. Avariya-qutqaruv ishlari;
4. Yong‘in o‘chirish yenglaridan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomasi.

#### IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
1	Yong'in o'chirish va qutqaruv texnikasi	Favqulodda vaziyatlar haqida asosiy tushunchalarni biladi. Favqulodda vaziyatlar tasnifi, turlari, yong'inlarni kelib chiqish sabablari, manbalari, yong'in qutqaruvchilarning favqulodda vaziyatlarda vazifalari, hamkor tashkilotlar bilan aholi va hududlarni muhofaza qilish bo'yicha vazifalari haqida tushunchalarga ega. Yong'in-qutqaruv texnikalarini taktik texnik xususiyatlari. Asosiy va maxsus, yordamchi texnikalarning vazifalari. Qutqaruv asbob-anjomlardan foydalanish qoidalarini biladi va amalda qo'llay olishi lozim.	20 ta
2	Yong'in o'chirish taktikasi;	Respublika yong'in qutqaruv garnizoni va uning kuch va vositalar, yong'in-qutqaruv bo'linmalari haqida ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Yong'inlar sodir bo'lganda yong'inlarni razvedkasi, navbatchilik xizmati tomonidan yong'in joyiga kerakli kuch va vositalar yuborish, qidiruv qutqaruv ishlarini tashkillashtirish, aloqani tashkillashtirish, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, yong'in xususiyatidan kelib chiqib yong'in texnik asbob anjomlarini tanlash, insonlar va moddiy tovar boyliklarni qutqarish, jabrlangan tibbiy yordam ko'rsatish va evakuasiya qilish qoidalarini bilishi kerakli kuch va vositalarni hal qiluvchi yo'nalishga joylashtirishni amalda qo'llay olishi bilish lozim.	10 ta
3	Avariya-qutqaruv ishlari;	Tabiiy va texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda ishlab chiqarish obyektlari va aholi yashash punktlarida avariya-qutqaruv ishlarini tashkillashtirish. Qidiruv-qutqaruv ishlarini olib borish, vizual kuzatuv ishlari, maxsus asbob-anjomlar, kinologiya xizmati itlaridan foydalanish, kuchli ta'sir qiluvchi zaharli moddalar tarqagan joylarga qutqaruvchilar maxsus kiyim boshlardan foydalanishi, zaralangan hududlarni zararsizlantirish tadbirlarini amalga oshirish choralarini qo'llay olishi lozim. O'zaro hamkorlik bo'yicha sohaviy xizmatlar bilan doimiy aloqani tashkil etishni bilishi lozim	5 ta
4	Yong'in o'chirish englaridan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma	Yong'in sodir bo'lgan joylarda yong'in texnik vositalari to'g'ri tanlay olish, yong'in o'chirish englarini sinovdan o'tkazish yong'in o'chirish englarini pasportlarini yuritish, ulardan foydalanish qoidalari, quritish tartibi, asosiy suv yo'li (magistral) ishchi englardan foydalanish, uzunligi, diametrlari, suv ayirgichlardan foydalanish va ishlash muddati o'tgan yong'in o'chirish englarini hisobdan chiqarish tartibini bilishi kerak.	5 ta

## V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	<b>Bilish</b>	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20%
2.	<b>Qo'llash</b>	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60%
3.	<b>Mulohaza qilish</b>	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20%

## VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

## VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

## VIII. Imtihon tartibi

*Taqiqlangan vositalar:* imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iy man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

## IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. Yong'in xavfsizligi to'g'risidagi Qonuni 2009-yil
2. Yong'in o'chirish va qutqaruv texnikasi darslik 2023-yil.
3. Yong'in o'chirish taktikasi darslik 2025-yil.
4. Yong'in o'chirish yenglaridan foydalanish bo'yicha qoidalar 2019-yil
5. Yong'indan saqlash bo'linmalari tomonidan yong'inlarni o'chirishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizom 2010-yil

*\*Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*